

## **Raqamlashtirish bu korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini yo‘q qilishga intilishdir**

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun eng muhim vazifalaridan biri bu – Kombinat ishchi xodimlari ongini tubdan o‘zgartirish, Kombinatimizda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirishdir. Bu muammoni hal qilish uchun birinchi navbatda, Kombinat ishchi xodimlari huquqiy madaniyatini tizimli ravishda oshirib borish, Kombinatda xizmat ko‘rsatish tartib – taomillarining to‘liq shaffofligi va ochiq oshkorraligiga erishishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2023-yil 19-dekabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi o‘z nutqida: “... Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljalangan milliy strategiyani ishlab chiqib, hayotga tatbiq etamiz. Davlat idorlalari faoliyatining yanada shaffofligini ta‘minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma’lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida e’tibor beramiz”, deb ta’kidladilar.

Bugungu kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini so‘zsiz ta‘minlashga, ochiqlik siyosatini izchillik va qati’yat bilan davom ettirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan ishlar jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish maqsadida 2023-yil davomida Kombinatimiz faoliyatida raqamlashtirishni joriy etish ishlarini tizimli ravishda amalga oshirildi. Kombinatda bugungi kunga qadar Axborot texnologiyalari departamenti tomonidan **14 ta** axborot tizimlari joriy etildi.

Bular:

- Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo‘linmada ishlab chiqarish hisobini olib boruvchi axborot tizimi;
- Laboratoriya faoliyatining avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- Tayyor mahsulotlar savdo sotiq jarayonlari uchun avtomatlashtirilgan E-Navbat axborot tizimi;
- IP telefoniyta tizimi;
- EDO.IJRO.Uz idolararo elektron hujjat aylanish tizimi;
- Avtomobillar uchun GPS – TPEKER axborot tizimi;
- Data SENTR kombinat ma’lumotlar markazi;
- Xodimlarning kirish va chiqishini nazorat qilish, ish vaqtini hisobini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimi;
- UMK oylik telegram boti;
- SMS xabarnoma xizmati;
- E – OSHXONA taomlarga elektron tarzda buyurtma berish tizimi;
- Kombinatdagi bo‘sh o‘rinlarini ko‘rish va rezyume jo‘natish uchun my.uzbeksteel.uz elektron portal;
- Kombinatga ishga qabul qilish va malakasini oshirish uchun elektron test tizimi.

Erishilgan yutuqlardan kerakli xulosalar chiqarib va ildam rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda Kombinat raqamlashtirish sohasida 2024-yilda Axborot texnologiyalari departamentining yetuk mutaxassislarining bilim va tajribalari asosida **5 ta** yangi axborot tizimlarini joriy etishni rejalashtirган:

1. Elektrda po‘lat eritish kompleksi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish hisobiga mahsulot tannarxini 2% ga kamaytirish;

2. “Ikkilamchiqorametallar” filiallarida tarozilarini integrasiya qilish hisobiga xom ashyo qabul qilish nazorati jarayonlarida inson omili aralushuvini keskin qisqartirish;

3. O’quv jarayonlarini avtomatlashtirilgan tarzda boshqarilishini ta’minlash, o’qishlar to‘g‘risida o‘z vaqtida va ishonchli ma’lumotlarni shakllantirish, jarayonlar va ishlarni ixchamlashtirish va tezlashtirish maqsadida - “1C Korxona” Kombinatni boshqarish integrasiyakashgan tizimi negizida xodimlarni malakasini baholash, o‘qitish va rivojlantirish jarayonlarini avtomatlashtirish rejalashtirildi.

Kombinat ishchi xodimlaridan korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas’uliyat bilan ishtirok etishlarini so‘rayman.

Sizlarni befarq bo‘lmaslikka, poraxo‘rlik va korrupsiya, qarindosh urug‘chilik, manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

**Axborot texnologiyalari departamenti direktori Xudoyarov A.A.**